

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



## O'ZBEKISTONDA CHET TILINI O'RGANISHNING AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI

Hulkar Urakova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti:  
ingliz tili yo'nalishi 22/13- guruh 1-kurs talabasi*

*E-mail: [hul.kar@mail.com](mailto:hul.kar@mail.com)*

Zarina Muborova

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti:  
ingliz tili yo'nalishi 22/13- guruh 1- kurs talabasi  
E-mail: [zarinamuborova@mail.com](mailto:zarinamuborova@mail.com)*

Qayumova Nodira Zaynitdinovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Turizm fakulteti tyutori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola chet tilini o'rganishning rivojlanishi, chet tilini o'rgatishning zamonaviy usullari va metodlari, O'zbekistonda chet tiliga bo'layotgan talabning oshish sabablari va O'zbekistonda chet tilini o'qitish muammolari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'quv dastur, innovatsion texnologiya, ta'lim taraqqiyoti, metodika, aqliy tarbiya, til muammolari, so'z boyligi, talaffuz.

**Abstract:** This article describes the development of foreign language learning, modern methods and methods of foreign language teaching, the reasons for the increasing demand for foreign languages in Uzbekistan, and the problems of foreign language teaching in Uzbekistan.

**Keywords:** Educational program, innovative technology, educational progress, methodology, mental education, language problems, vocabulary, pronunciation.

**Абстрактный:** В данной статье рассказывается о развитии изучения иностранных языков, современных методах и методах обучения иностранным языкам, причинах увеличения спроса на иностранные языки в Узбекистане, проблемах обучения иностранным языкам в Узбекистане.



**Ключевые слова:** образовательная программа, инновационные технологии, образовательный прогресс, методология, умственное образование, языковые проблемы, словарный запас, произношение.

## Asosiy qism

Hozirgi kunda ingliz tilini o’rganishning ahamiyati O’zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo’lib bormoqda. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan chet tillarni yanada takomillashtirib o’qitish yuzasidan 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875 ya’ni “Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takommilashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori qabul qilindi. [1] Chet tillarni o’rganishning ilk bosqichlarida o’rganuvchilarning ona tillarining xususiyatlari ham ta’sir ko’rsatadi. Til o’rganishda ko’plab tilning ko’p jihatlari asta sekinlik rivojlanadi. Til o’qitishda jiddiy muammolardan biri til qaysi usullar va metodlar yordamida olib borilayotgani bilan bog’liq. Yana bir muammolardan biri maktablarda chet tillari kam soatlarda o’qitilishi. So’zlash, o’qish, yozish, tinglab tushunish va so’z boyligini oshirish uchun va bularni to’g’ri qo’llash uchun 6-7 yil mobaynida darslarni samarali o’tkazilishi nazarda tutadigan o’quv dastur va fanlar bo’lishi lozim. Bundan fikrlaydigan bo’lsak, bir haftada o’tiladigan chet tillari yetarli emas. Bundan tashqari chet tillarini o’rganish uchun innovatsion texnologiya ham muhim rol o’ynaydi. Har bir innovatsion texnologiya o’ziga xos afzallik jihatlari bor. Bunday metodlarning barchasida o’quvchi va o’qituvchi o’rtasidagi munosabat, o’quvchilarning ta’im jarayonidagi harakatlari ko’zda tutiladi [2]. Chet tillarini o’rganish faqat til o’rganish yoki bo’lmasa faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o’zga madaniyat ta’limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish jarayoni hisoblanadi. Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion-inglizcha “yangilikni kiritish” ma’nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E. Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan [3]. Tilni o’rgatish ko’proq madaniyatli pedagog, kadr hamda shaxsni shakllantirishga qaratilgan. Bugungi rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O’zbekistonda ham chet tillarni bilish ko’nikmasi ta’limning



ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Hozirgi kunda chet tilini o'rganishning ahamiyati yurtimizda oldingiga qaraganda o'sib bormoqda. Bir qancha yoshlarimiz va ingliz tili mutaxassislari ingliz tilini o'rganishni yangi usul va metodlarini hayotga targ'ib qilishmoqda. Bu albatta chet tillarini o'qitishga bo'lgan samaradorlikni oshirishiga sabab bo'ladi. Til o'rganish ham yosh davrlarga bog'liq. Bolalar kattalarga qaraganda ancha tez va oson o'zlashtirishadi. O'zbekistonda ko'plab yoshlarni bitta savol qiynaydi. U "chet tilini qanday qilib tez o'rgansa bo'ladi?" Muammoning asosiy sababi noto'g'ri yondashuvdadir. Chet tilini o'rganishda eng oson yo'lni tanlab bilish kerak. Bizning maktablarimizning ba'zilarida haliyam o'sha eski metodika ya'ni faqat yoz, qara mana shular. Zamonlar o'zgarmoqda, taraqqiyot o'zgarmoqda, rivojlanishlar boshlanmoqda. Demak biz ham zamonaviy usullardan foydalanishimz kerak. Masalan, bolalarni chet tilini mustahkam o'rganib olishi uchun ularga turli qiziqarli o'yinlar tashkil etish. Hozirda chet tillarini o'rganish o'yinlar judayam ko'p. Masalan, "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar [4]. Eng muhimi tillarni o'rganish uchun bizda kuchli xohish va istak bo'lishi kerak. Til o'rganishda o'zingizga bo'lgan ishonchni orttira olganingizdan keyin tilni o'rganishga kirishgan bo'lasiz. Chet tillaridan biri hisoblangan ingliz tili xalqaro tan olingan muloqot tili hisoblanib, 53 ta mamlakatda 400 milliondan ortiq kishi ingliz tilida so'zlashadi. Bundan tashqari ingliz tili biznes tili ham hisoblanadi, chunki chet elda ko'p bizneslar ingliz tilida olib boriladi. Ingliz tilining yana bir mashhur taraflaridan biri chet mamlakatlarda eng yaxshi filmlar, kitoblar va musiqalar ingliz tilida bo'ladi. Agar ingliz tilini o'rgansangiz ko'p imkoniyatlarga ega bo'lasiz. O'zbekiston ham ingliz tilini o'rganish borasida jahonda yetakchi o'rnlarda turishga harakat qilmoqda. Jumladan, Yurtimiz ingliz tilini bilish reytingida 100 mamlakat ichida 95-o'rinni egallab turibdi. Faqatgina Singapur mazkur reytingning kuchli o'ntaligiga kirgan yagona davlat bo'lib, beshinchi o'rinda egallagan. Hozirgi zamonda kamida bitta chet tilini bilish o'ta zarur va katta ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish



usullari boshqachadir. Ulardan biri bu- kino va multiplikatsion filmlarni tomosha qilish hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizdagи ko'plab tajribali va malakali ingliz tili o'qituvchilarimiz Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasi va metodlariga tayangan holda innovatsion metodlardan foydalanib kelismoqda. Bu malakali o'qituvchilar orasida chet mamakatda o'qib kelganlari ham uchraydi. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Innovatsion texnologik vositalardan chet tili o'rganishning har bir bandi( o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)da qo'l keladi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzallikkleri bor. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rtta ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. O'quvchi jonli harakatlarni ko'rib ba'zi so'zlarning ma'nosini taxmin qila oladi va uni tushunishga harakat qiladi [5]. Texnologiya ham asta sekinlik bilan an'anaviy o'qitishning o'mini egallamoqda.

## Xulosa

Texnologiya rivojlanayotgan bir davrda biz chet tilini o'rganuvchilarni qiziqtira olish, ularning bilimlarini boyitishda innovatsion texnologiyanng o'mi beqiyos deb ayta olamiz. Xulosa qilib aytganda, chet tillari darslarida innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan va usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarnng mantiqiy fikrlash va o'yash qobiliyatları rivojlanadi, nutq ravonlashadi hamda tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Rivojlanayotgan mamlakatimizda vat ta'lim tizimi fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxslarni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar edi. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, muloqot amaliyoti hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova Odinaxon Inomovna.- Ingliz tilini o'qitish va o'rganishda zamonaviy texnologiyalaran foyalanish.-Oriental renaissance innovative, educational, natural and social sciences-2022

# НОВОВВЕДЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО НАУЧНОГО РАЗВИТИЯ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ



2. O'. Hoshmov, I. Yoqubov.-“ Ingliz tili o'qitish metodikasi”( o'quv qo'llanma) Toshkent: ” Sharq” nashriyoti
3. Zayniddin Sanaqulov, Baxromjon Joraboyev. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar, 2021
4. Muminova Feruza Muratjanovna.-Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish
5. Absamadova Munira Isroilovna.-Ingliz tilini o'qitish va o'rghanishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.-Ученный XXI века-2016

